

**PRIMQUL QODIROVNING “QORA KO’ZLAR” ROMANIDAGI
GENDER TENGLIGI MASALALARI*****Omonboyeva Oynisa Rasuljon qizi****Namangan davlat pedagogika instituti, Pedagogika nazariyasi va tarixi**Mutaxassisligi(sohalar bo'yicha) 2-bosqich magistranti**E-mail: oynisa.omonboyeva@mail.ru Tel: +998 95 030 52 00***DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21158919>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning “Qora ko’zlar” romani zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb yo’nalishlaridan biri bo’lgan gender yondashuvi asosida ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda asar qahramonlari – Xulkar, Avaz, Jannatxon va Xolbek obrazlari o’rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar, ayol shaxsining erkinligi, qaror qabul qilishdagi mustaqilligi hamda an’anaviy stereotiplarga munosabati ochib berilgan. Muallif romandagi gender tengligi masalalarini faqatgina ijtimoiy fenomen sifatida emas, balki pedagogik, psixologik va ma’naviy-axloqiy qadriyatlar kontekstida tadqiq etadi. Maqola yakunida o’zbek nasridagi gender konsepsiyasini o’rganish va yoshlar tarbiyasida ushbu asarning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish bo’yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: Pirimqul Qodirov, “Qora ko’zlar” romani, gender tengligi, ayol obrazi, ijtimoiy munosabatlar, psixologik tahlil, milliy qadriyatlar, pedagogik yondashuv.

**ПРИМКУЛ КОДИРОВ И РОМАН “ЧЁРНЫЕ ГЛАЗА”: ПРОБЛЕМЫ
ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА**

Аннотация. В данной статье роман известного писателя Пиримкула Кадырова «Черные глаза» подвергнут научному анализу на основе гендерного подхода, который является одним из актуальных направлений современного литературоведения. В исследовании раскрываются социально-психологические взаимоотношения между персонажами произведения – Хулькар, Авазом, Джаннатхон и Холбеком, а также свобода женской личности, её самостоятельность в принятии решений и отношение к традиционным стереотипам. Автор исследует вопросы гендерного равенства в романе не просто как социальный феномен, а в контексте педагогических, психологических и духовно-нравственных ценностей. В заключении статьи разработаны научные предложения по изучению гендерной концепции в узбекской прозе и использованию дидактических возможностей данного произведения в воспитании молодежи.

Ключевые слова: Пиримкул Кадыров, роман «Черные глаза», гендерное равенство, образ женщины, социальные отношения, психологический анализ, национальные ценности, педагогический подход.

**PRIMQUL QODIROV'S “BLACK EYES” NOVEL AND GENDER
EQUALITY ISSUES**

Annotation. This article offers a scientific analysis of the prominent writer Pirimkul Kadyrov's novel "Black Eyes" based on the gender approach, which stands as a significant field in contemporary literary criticism. The study explores the socio-psychological relationships among the characters—Khulkar, Avaz, Jannatkhon, and Kholbek—as well as female autonomy, independence in decision-making, and attitudes toward traditional stereotypes. The author examines gender equality issues within the novel not merely as a social phenomenon, but within the context of pedagogical, psychological, and spiritual-moral values. The paper concludes with scientific recommendations for exploring the gender concept in Uzbek prose and utilizing the didactic potential of this literary work in youth education.

Keywords: Pirimkul Kadyrov, "Black Eyes" novel, gender equality, female image, social relations, psychological analysis, national values, pedagogical approach.

Kirish. Badiiy adabiyot jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarni, insonning ichki kechinmalari hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni aks ettiruvchi muhim manbadir. Xususan, gender tengligi masalasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Gender tengligi erkak va ayolning jamiyatdagi huquq va imkoniyatlarining tengligini, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligi hamda shaxs sifatida o'zini namoyon etish huquqini anglatadi.

O'zbek adabiyotida ayol obrazi turli davrlarda turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, ayrim asarlarda ayolning jamiyatdagi o'rni, uning ijtimoiy mavqeyi hamda ichki ruhiy olami chuqur badiiy tahlil etilgan. Shu jihatdan, Pirimkul Qodirovning 1966-yilda yozilgan “Qora ko'zlar” romani alohida e'tiborga loyiqdir. Asarda insoniy munosabatlar, oila va jamiyat muammolari bilan bir qatorda, ayolning o'z taqdiri, huquqi va erkinligi masalalari ham badiiy ifoda topgan.

Mazkur maqolada “Qora ko'zlar” romanida gender tengligi masalalarining aks etishi, ayol va erkak obrazlari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar hamda muallifning ushbu muammoga munosabati ilmiy tahlil asosida yoritiladi. Shuningdek, asarda tasvirlangan gender masalalarining bugungi kun jamiyati bilan bog'liqligi ham ochib beriladi.

Asosiy qism: Gender tengligi masalasi zamonaviy adabiyotshunoslikda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Ingliz va O'zbek adabiyotlariga nazar tashlasak [1] Shekispir asarlarida erkak va ayol rollari an'anaviy jamiyat tasavvurlariga asoslangan bo'lsada, ba'zida gender chegaralari buzilishi ham kuzatilishi mumkin. Shundan boshlab feminist ayol obrazlari yanada mustaqil va kuchli shaxs sifatida tasvirlana boshladi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab badiiy asarlarni gender yondashuv asosida tahlil qilish tendensiyasi kuchaydi. G'arb adabiyotshunosligida gender nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida Simone de Beauvoir, Judith Butler kabi olimlarning ilmiy qarashlari muhim o'rin tutadi. Ularning asarlarida ayolning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy rollar konstruksiyasi hamda gender identifikatsiya masalalari chuqur tahlil etilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham mustaqillikdan keyingi davrda gender masalalariga e’tibor kuchaydi. Milliy adabiyotda ayol obrazi, uning ijtimoiy maqomi va erkak–ayol munosabatlari masalalari ko‘plab ilmiy maqolalar hamda dissertatsiyalarda tadqiq etilgan. Xususan, o‘zbek nasrida ayol xarakterining evolyutsiyasi, oilaviy munosabatlar va ma’naviy qadriyatlar kontekstida gender muammolari o‘rganilgan.

Primqul Qodirov ijodi yuzasidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda asosan yozuvchining tarixiy romanlari, milliy xarakter yaratish mahorati, badiiy til xususiyatlari va psixologik tasvir uslubi tahlil qilingan. Jumladan, uning “Yulduzli tunlar” romani bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar mavjud bo‘lsa-da, Qora ko‘zlar romanida gender yondashuv asosida maxsus tadqiq etilishi yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Mazkur roman yuzasidan mavjud tadqiqotlarda asosan [2] asar qahramonlarining ruhiyati va ma’naviy olamini yaratishga bag‘ishlangan izlanishlar olib borilgan. Muhabbat, sadoqat, milliy mentalitet va ma’naviy-axloqiy qadriyatlar masalalari yoritilgan. Biroq asardagi ayol va erkak obrazlari o‘rtasidagi ijtimoiy tenglik, qaror qabul qilishdagi mustaqillik, shaxs erkinligi kabi gender mezonlari asosida kompleks tahlil kam uchraydi.

Shu jihatdan, “Qora ko‘zlar” romanida gender tengligi masalasini ilmiy-nazariy asosda o‘rganish adabiyotshunoslikdagi mavjud tadqiqotlarni boyitadi hamda o‘zbek nasrida gender konsepsiyasining ifodalanish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

“Qora ko‘zlar” romanida gender tengligi masalasi muallif tomonidan turli badiiy vositalar orqali yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayol va erkak qahramonlar asarda o‘z fikrini erkin bildiradi oladigan, qaror qabul qilishda mustaqil shaxslar sifatida tasvirlangan. Erkak qahramonlar esa ko‘pincha oila va jamiyat oldidagi mas’uliyat bilan bog‘liq rollarda namoyon bo‘ladi. Shu orqali muallif gender tengligi masalasini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ko‘rsatadi.

Asarda Xulkar o‘z taqdirini belgilash imkoniyati va uning turmush o‘rtog‘i Avaz bilan birgalikda mehnat qilishi va bu bilan ayollarda o‘z qiziqishlari sabab oldilarida turgan ishni bajara olishlari ochiq ko‘rsatib berilgan. Undan tashqari asarda Xulkar tufayli Jannatxonga ham uning turmush o‘rtog‘i Xolbek yaxshi munosabatda bo‘la boshlagani, ayolni cheklash emas uni iste’dodini rivojlantirish teng muomala qilish imkoniyati pedagogik nuqtai nazardan qadriyatlar, axloqiy qarorlar va shaxsiy mas’uliyatni o‘rganish uchun misol sifatida xizmat qiladi. Psixologik tahlil esa qahramonlarning ichki kechinmalari, qaror qabul qilishdagi ichki kurashlari va ijtimoiy stereotiplarga munosabati orqali gender rollarining chuqur yoritilganligini ko‘rsatadi. Ayol qahramonlarning ichki dunyosi va ruhiy holati markaziy o‘rin egallab, ularning mustaqilligi va faolligi alohida ta’kidlangan.

Qiyosiy tahlil natijalari esa shuni ko‘rsatadiki, asardagi gender munosabatlari boshqa o‘zbek adabiy namunalar bilan solishtirilganda yanada tenglashtirilgan va zamonaviy qarashlarga mos keladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalariga ko‘ra, Primqul Qodirov asarda gender tengligini faqat ijtimoiy mavzu sifatida emas, balki psixologik, pedagogik va badiiy qirralari bilan ham yoritgan. Ayol va erkak obrazlarining teng huquqliligi va mustaqil shaxs sifatida tasvirlanishi romanning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatini

oshiradi. Shu bilan birga, gender nazariyasi asosida badiiy asarni o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligida yangi ilmiy yondashuv sifatida muhimdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Primqul Qodirovning “Qora ko‘zlar” romani gender tengligi masalasini nafaqat nazariy, balki amaliy, psixologik va pedagogik jihatdan ham yoritgan. Asarda ayol va erkak obrazlarining teng huquqliligi, qaror qabul qilishdagi mustaqilligi va shaxsiy erkinligi aniq ifodalangan. Shu bilan birga, qahramonlarning ichki kechinmalari, ijtimoiy stereotiplarga munosabati va o‘zaro munosabatlari orqali muallif zamonaviy gender konsepsiyasini badiiy tilda yetarlicha aks ettirgan.

Pedagogik tahlil shuni ko‘rsatadiki, romandagi qadriyatlar, axloqiy qarorlar va ijtimoiy me‘yorlar hozirgi zamon o‘quvchilari va yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lishi mumkin. [3] Toshga rasm solib ketgan o‘sha bobolarimiz ham ayol kishini shunchalik hurmat qilar ekanku, deb Madaminjon aytgan jumla esa asarning ijtimoiy-axloqiy mazmunini chuqurlashtiradi va milliy qadriyatlarning bugungi kundagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqotdan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, o‘zbek adabiyotshunosligida gender nuqtai nazaridan badiiy asarlarni o‘rganish va tahlil qilishni kengaytirish zarur. Ikkinchidan, ta’lim jarayonida “Qora ko‘zlar” kabi asarlarni pedagogik va axloqiy qadriyatlar nuqtai nazaridan o‘quvchilarga tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, ayol va erkak obrazlarini tahlil qilish orqali yoshlar ongida shaxsiy erkinlik, tenglik va hurmat qadriyatlarini shakllantirish mumkin. To‘rtinchidan, gender tengligi masalasini boshqa milliy va zamonaviy o‘zbek nasri namunalarida ham tadqiq qilish, ilmiy baza va yondashuvlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, mazkur tadqiqot nafaqat asarni ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan o‘rganishga, balki gender, pedagogik va ijtimoiy qadriyatlarni yosh avlod ongida shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- [1] <https://researchgate.net>
- [2] <https://zenodo.org>
- [3] P.Qodirov, “Qora ko‘zlar”. “Yoshlar matbuoti”, 2023-yil